

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexniliyalar universiteti**

**F.S.Boboyevaning “Veterinariya profilaktikasi va davolash” fakulteti  
60840100-Veterinariya meditsinasi (faoliyat turlari bo‘yicha) ta’lim  
yo‘nalishi 2-bosqich talabalariga “Hayvonlar patofiziologiyasi” fanidan  
“Medikamentoz va tuz isitmalari” mavzusidagi ochiq laboratoriya  
mashg‘ulotiga**

**T A Q R I Z**

F.S.Boboyevaning “Medikamentoz va tuz isitmalari” mavzusidagi ochiq laboratoriya mashg‘uloti darsining uslubiy ko’rsatmasida ushbu muammoning dolzarbliji, uni o’rganish veterinariya amaliyotidagi ahamiyati atroflicha yoritilgan. Mavzuda mavzuga oid atamalar, ularni izohlari tushuncha holatida berilgan. Laboratoriya mashg‘ulotda qo‘llaniladigan jihozlar va hayvonlar sanab o‘tilgan. Bundan tashqari laboratoriya mashg‘ulotning asosiy qismi to‘liq yoritilgan.

Laboratoriya mashg‘ulotning taqdimotida “Hayvonlar patofiziologiyasi” fanidan “Medikamentoz va tuz isitmalari” mavzusi batafsil yoritilgan bo‘lib, isitmaning sabablari, bosqichlari, oqibati va organizm uchun ahamiyati haqida tushunchaga ega bo‘lish, bundan tashqari isitmaning bosqichlarini o‘rganish bo‘yicha laboratoriya ishlari bilan mavzu mustahkamlanib tushunchalar berilgan.

Bundan tashqari, dars pirovardida mashg‘ulot bo‘yicha ishlanma talabani fikrlash qobiliyatini oshiruvchi va shular asosida slaydlar orqali mavzu aniq izohlangan.

Laboratoriya mashg‘uloti taqdimotida internet ma’lumotlaridan foydalanilgan, slaydlarda rangli rasmlardan foydalanilganda mavzuni talabalar tomonidan chuqurroq o‘zlashtirilishiga yordam berardi.

F.S.Boboyevaning “Hayvonlar patofiziologiyasi” fanidan “Medikamentoz va tuz isitmalari” mavzusidagi laboratoriya mashg‘uloti matni va slaydlari hozirgi zamon innovatsion ta’lim texnologiyalari talabalariga javob beradi deb o‘ylayman va uni o‘quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya qilaman.

**“Hayvonlar fiziologiyasi, biokimyosi  
va patologik fiziologiya” kafedrasining  
mudiri, dotsenti:**

**D.Eshimov**

**F.S.Boboyevaning “Veterinariya profilaktikasi va davolash” fakulteti  
60840100-Veterinariya meditsinasi (faoliyat turlari bo‘yicha) ta’lim  
yo‘nalishi 2-bosqich talabalariga “Hayvonlar patofiziologiyasi” fanidan  
“Medikamentoz va tuz isitmalari” mavzusidagi ochiq laboratoriya  
mashg‘ulotiga**

**T A Q R I Z**

Laboratoriya mashg‘uloti mavzusi fan dasturi va ishchi o‘quv dasturiga to‘liq mos keladi. Laboratoriya mashg‘uloti, matni pedagogik texnologoyalardan to‘liq foydalanilmagan. Dastlab laboratoriya mashg‘ulotning maqsadi va vazifalari, o‘qitishning pedagogik texnologiyasi berilgan bo‘lib, unda pedagogik faoliyat va o‘quv faoliyat natijalari ko‘rsatilgan. Laboratoriya mashg‘ulotining texnologik xaritasida esa, o‘quv mashg‘ulotining vaqtি ko‘rsatilgan. Lekin, laboratoriya mashg‘uloti taqdimotida internet ma’lumotlaridan foydalanilmagan , slaydlarda rangli rasmlardan foydalanilganda mavzuni talabalar tomonidan chuqurroq o‘zlashtirilishiga yordam berardi.

Agar mavzuda belgilangan reja ketma-ketligiga rioya qilinib, ko‘rgazmali qurollardan o‘z vaqtida foydalanib, tayanch iboralarga izoh berib, laboratoriya mashg‘ulotda talabalar bilan muloqotda bo‘lib, mavzu yuzasidan fikrlar so‘ralib o‘tilsa, maqsadga erishiladi. Mavzuning oxirida nazorat savollari berilgan, ammo nostandard testlardan foydalanilmagan.

Yuqoridagi keltirilgan kamchiliklarga qaramasdan, mavzuning shakli va mazmuni uslubiy jihatdan to‘g‘ri yozilganligini inobatga olib, F.S.Boboyeva tomonidan tayyorlangan “Medikamentoz va tuz isitmalari” mavzusini o‘quv jarayonida joriy qilishni tavsiya qilaman.

**Veterinariya ilmiy tadqiqot**

**Instituti “Patomorfologiya” laboratoriysi**

**mudiri, katta ilmiy xodim, v.f.n.,**

**O.A.Jo’rayev**

